

## AXBOROT URUSHI VA PROPAGANDA VOSITALARINING MILLIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

**Abdukamolov Asrorbek Abdumutolib o'g'li**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik kafedrası*

*Amaliy siyosatshunoslik mutaxassisligi magistranti*

*E-mail: asrorabdukamolov2002ail.gmail.com*

**Аннотация.** *Ushbu maqolada zamonaviy raqamli muhitda kuchayib borayotgan axborot urushi va propaganda vositalarining milliy xavfsizlikka ko'rsatadigan ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Global kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlatlarning mafkuraviy barqarorligi, ijtimoiy-siyosiy muvozanati va jamiyat ongining boshqarilishiga doir yangi shakldagi tahdidlarni yuzaga kelishi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, botlar va deepfake texnologiyalarining jamiyat ongiga ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi va milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan ushbu tahdidlarning oqibatlari, xususan, davlat institutlariga ishonchning pasayishi, ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi va mafkuraviy immunitetning zaiflashuvi kabi jihatlar yoritiladi.*

**Калит so'zlar:** *Axborot urushi, propaganda, milliy xavfsizlik, raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, botlar, deepfake texnologiyalari, jamoatchilik ongi, mafkuraviy barqarorlik.*

**Аннотация.** *В данной статье проводится комплексный анализ воздействия усиливающихся в современной цифровой среде информационных войн и пропагандистских инструментов на национальную безопасность. Стремительное развитие глобальных коммуникационных технологий способствует возникновению новых форм угроз, связанных с идеологической устойчивостью государств, социально-политической стабильностью и процессами формирования и управления общественным сознанием. Особое внимание уделяется анализу механизмов влияния социальных сетей, цифровых платформ, ботов и технологий deepfake на общественное мнение. С позиции национальной безопасности в статье также рассматриваются возможные последствия данных угроз, включая снижение уровня доверия к государственным институтам, усиление социальных противоречий и ослабление идеологического иммунитета общества.*

**Ключевые слова:** *Информационная война, пропаганда, национальная безопасность, цифровая среда, социальные сети, цифровые платформы, боты, технологии deepfake, общественное сознание, идеологическая стабильность.*

**Abstract.** *This article presents a comprehensive analysis of the impact of intensifying information warfare and propaganda instruments within the contemporary digital environment on national security. The rapid advancement of global communication technologies has generated new forms of threats associated with the ideological stability of states, socio-political equilibrium, and the processes of shaping and influencing public consciousness. Particular attention is devoted to examining the mechanisms through which social networks, digital platforms, bots, and deepfake technologies affect public opinion. From a national security perspective, the article also discusses the potential consequences of these threats, including the decline of public trust in state institutions, the escalation of social tensions, and the weakening of society's ideological resilience.*

**Keywords:** *Information warfare, propaganda, national security, digital environment, social networks, digital platforms, bots, deepfake technologies, public consciousness, ideological stability.*

XXI asrga kelib global kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning barcha qatlamlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Ushbu jarayonning eng sezilarli ta'siridan biri – axborotlar xuruji hamda propaganda kabi hodisalarning tamoman yangi bosqichga ko'tarilganidir. Raqobat va geosiyosiy kurash maydonida endilikda ma'lumotlarni ishlab chiqarish, tarqatish va boshqarish strategik ustunlikning hal qiluvchi omiliga aylandi. Amerikalik futurist olim Alvin Toffler ta'kidlaganidek, zamonaviy davrda kuchning asosiy manbai axborotni egallash va undan samarali foydalanish imkoniyatidir<sup>5</sup>. Ushbu sohada tadqiqod olib borgan Martin C. Libicki esa axborot urushini davlatlar o'rtasidagi raqobatning mustaqil va strategik shakli sifatida talqin qiladi<sup>6</sup>. Bu esa muommoning qanchalik darajada ko'lami kengligini ko'rsatib beradi.

Aytish lozimki raqamli platformalar orqali tarqatilayotgan manipulyativ kontent, dezinformatsiya, targ'ibot xabarlar va soxta axborot oqimlari davlatlarning siyosiy tizimi, jamoatchilik kayfiyati hamda milliy birdamligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. NATO tomonidan tayyorlangan hisobotlarda qayd etilishicha, axborot xurujlari faqat qurolli to'qnashuv sharoitidagina emas, balki tinch davrda ham jamiyat ongini beqarorlashtirish, davlat institutlariga bo'lgan ishonchni susaytirish va ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarish maqsadida qo'llaniladi. Shu sababli axborot urushi bugungi kunda an'anaviy harbiy xavflar qatori milliy xavfsizlikning eng murakkab va nozik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

<sup>5</sup> Toffler, A., & Toffler, H. (1995). *War and anti-war: Survival at the dawn of the 21st century*. Little, Brown.

<sup>6</sup> Libicki, M. C. (2007). *Conquest in cyberspace: National security and information warfare*. Cambridge University Press.

Propagandaning zamonaviy ta'siri, ayniqsa, raqamli ekotizimda kuchli namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarining selektiv axborot oqimini shakllantirish xususiyati odamlarning e'tiqodi va qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchi Zuboff bu jarayonni "behavioral modifikatsiya" – inson xatti-harakatlarini axborot orqali boshqarish amaliyoti sifatida izohlaydi<sup>7</sup>, bu esa raqamli kuzatuv iqtisodiyoti sharoitida propagandaning qamrovini yanada kengaytiradi.

Tadqiq qilinayotgan muommoning dolzarb hususiyatlaridan yana biri shundaki global axborot makonining chegarasiz, nazoratga olinishi qiyin va tezkorligi bilan belgilanadi. Transchegaraviy axborot oqimlari milliy hududiy to'siqlarni oson chetlab o'tadi va shu orqali davlatning siyosiy barqarorligi, ijtimoiy muvozanati hamda axborot mustaqilligiga sezilarli darajada xavf tug'diradi. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi global raqamli makonda eng faol qatlam bo'lgani sababli turli axborot xurujlarining asosiy nishoniga aylanib bormoqda.

Zamonaviy axborotlashuv jarayoni inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib borar ekan, axborot urushi va propaganda fenomenlari global xavfsizlik tizimining markaziy tushunchalaridan o'rin olmoqda. Ilmiy adabiyotlarda "axborot urushi" tushunchasi turlicha talqin etilsada, umumiy jihatdan u davlatlar, xalqaro tashkilotlar yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi raqobatda axborotni strategik resurs sifatida qo'llash amaliyotini bildiradi. Tadqiqotchi Arquilla va Ronfeldtlar axborot kurashini "tarmoqlarga asoslangan mojoro" sifatida tasvirlab, zamonaviy mojaro shakllarini tarmoqlar ustidan nazoratni qo'lga kiritish uchun kurash sifatida izohlaydi<sup>8</sup>. Shu bilan birga, Waltzman o'z izlanishlarida axborot urushini insonlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita aralashish imkonini beruvchi psixologik va texnologik vositalar majmui sifatida talqin qiladi<sup>9</sup>.

Umuman olganda axborot urushi mohiyatini anglash uchun bu jarayonning tarixiy shakllanishiga ham e'tibor qaratish lozim. Qadimgi strategik tafakkurda ham manipulyativ axborotning o'rni alohida qayd etilgan. Sun Zu "dushmanni jang maydoniga chiqmasdan turib aldash orqali yengish eng ustun strategiyadir" deya ta'kidlaydi. Biroq axborot urushining zamonaviy mazmuni aynan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan, sovuq urush davrida esa propaganda va kontrpropaganda global miqyosda mustaqil strategik maydonga aylangan. 1990-yillardan keyin internetning jadal ommalashuvi axborot kurashini global, tezkor va transchegaraviy shaklga olib kelganligini qayd etish lozim<sup>10</sup>.

<sup>7</sup> Zuboff, S. (2019). *The age of surveillance capitalism*. PublicAffairs.

<sup>8</sup> Arquilla, J., & Ronfeldt, D. (1997). *In Athena's camp: Preparing for conflict in the information age*. RAND Corporation.

<sup>9</sup> Waltzman, R. (2017). The weaponization of information: The need for cognitive security. *RAND Testimony Series*, 1–13.

<sup>10</sup> Carr, N. (2010). *The shallows: What the Internet is doing to our brains*. W. W. Norton.

O'tgan davr mobaynida shakillangan axborot urushining asosiy elementlaridan biri – axborot tahdidi bo'lib, u siyosiy muvozanat, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan manipulyativ, noto'g'ri yoki buzg'unchi axborot oqimlarini anglatadi. Bunday jarayonlar ko'pincha psixologik operatsiyalar, hikoyalarni yaratish va ziyraklikni pasaytirishga qaratilgan strategiyalar bilan uyg'unlashadi<sup>11</sup>. Shu sababli axborot urushi an'anaviy harbiy mojaro doirasidan chiqib, gibril (aralash) urush konsepsiyasining tarkibiy qismiga aylandi. Hoffman gibril urushni harbiy, siyosiy, iqtisodiy va axborot vositalarining bir vaqtning o'zida qo'llanishiga asoslangan ko'p qatlamli strategiya sifatida tushuntiradi<sup>12</sup>.

Propaganda jarayonining samaradorligi inson psixologiyasiga tayanib, Amerikalik psixolog Kahneman tomonidan ishlab chiqilgan “tezkor va sekin fikrlash” modeli shuni ko'rsatadiki, insonlar ko'pincha intuitiv, tezkor fikr yuritishga tayanadi<sup>13</sup>. Bu esa manipulyativ xabarlarining tez singib ketishiga imkon beradi. Tversky va Kahneman aniqlagan “Mavjudlik og'ishishi” (availability bias), “Langar effekti” (anchoring effect) kabi kognitiv illuziyalar propagandaning ta'sirchanligini yanada oshiruvchi mexanizmlardir. Bundan tashqari, emotsional qo'zg'atuvchi xabarlar, stereotiplar, takroriy narrativlar va identitetga murojaat qilish strategiyalari zamonaviy propaganda amaliyotining asosini tashkil etadi<sup>14</sup>.

Shuni ham ta'kidlash kerakki raqamli texnologiyalarning rivoji axborot urushini yanada murakkab va ko'p qatlamli jarayonga aylantirdi. Ijtimoiy tarmoqlarda algoritmik filtrlash natijasida foydalanuvchilar o'zlari bilan mos keluvchi axborot pufagida (“filter bubble”) qolib ketishi mumkin, bu esa dunyoqarashning torayishiga, ijtimoiy bo'linishning kuchayishiga sabab bo'ladi<sup>15</sup>. Deepfake texnologiyalari, sun'iy intellekt asosida yaratilgan soxta kontent, botlar va algoritmik manipulyatsiya vositalari dezinformatsiya jarayonini ilgari bo'lmagan darajada kengaytirib, axborot makonini beqarorlashuvga olib kelishi mumkin. Rid va McBurney (2012) ta'kidlaganidek, kiberxavfsizlik sohasidagi tajovuzlar ko'pincha axborot manipulyatsiyasi bilan uyg'un tarzda qo'llaniladi va siyosiy hamda iqtisodiy tizimlarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin<sup>16</sup>.

Yuqoridagi nazariyaga asoslangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot urushi zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarining o'zgarishidan iborat oddiy hodisa emas, balki milliy xavfsizlik tizimining tubdan transformatsiyalanishiga olib kelayotgan murakkab strategik jarayondir. Mazkur transformatsiyaning eng xavfli jihatlaridan biri

<sup>11</sup> Paul, C., & Matthews, M. (2016). *The Russian “firehose of falsehood” propaganda model*. RAND Corporation.

<sup>12</sup> Hoffman, F. (2009). Hybrid warfare and challenges. *Joint Force Quarterly*, 52, 34–39.

<sup>13</sup> Kahneman, D. (2011). *Thinking, fast and slow*. Farrar, Straus and Giroux.

<sup>14</sup> O'Shaughnessy, N. J. (2013). *Political marketing and propaganda: The rise of psychological warfare*. Palgrave Macmillan.

<sup>15</sup> Pariser, E. (2011). *The filter bubble: What the Internet is hiding from you*. Penguin Press.

<sup>16</sup> Rid, T., & McBurney, P. (2012). Cyber-weapons. *The RUSI Journal*, 157(1), 6–13.

axborot xurujlari an'anaviy harbiy to'qnashuvlarsiz ham jamiyat barqarorligiga sezilarli darajada zarar yetkazish imkoniyatiga ega. Axborot oqimlari ustidan nazorat uchun kechayotgan global raqobat siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarning ichki mexanizmlariga chuqur kirib borib, ularni bevosita zaiflashtirishga qaratilgan strategiyalar shakliga kirgan<sup>17</sup>.

Ushbu yo'nalishda izlanish olib brogan tadqiqotchilarning tahlillari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy axborot makoni milliy xavfsizlik uchun an'anaviy harbiy tahdidlardan kam bo'lmagan, hatto ko'p hollarda ulardan ham xavfli bo'lgan murakkab tahdidlar majmuasini yaratmoqda. Axborot urushi - bu faqat propaganda yoki dezinformatsiya tarqatish emas, balki davlatning siyosiy tizimi, jamiyatning kognitiv barqarorligi, ideologik immuniteti va texnologik infratuzilmasiga qaratilgan ko'p qirrali strategiyalarning integratsiyasidir. Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan nazariy yondashuvlar va xalqaro misollar.

Shuningdek axborot urushining xavfliligi, bir tomondan, uning ko'rinmas tarzda olib borilishi va aniq manbasini aniqlash mushkul bo'lishida namoyon bo'ladi. Bunda dezinformatsiya oqimlari, kiberhujumlar, psixologik operatsiyalar va algoritmik manipulyatsiya transchegaraviy, moslashuvchan va tez tarqaluvchi xususiyatga ega. Ikkinchi tomondan, axborot tahdidlari eng avvalo media savodxonligi past, siyosiy jihatdan beqaror yoki kognitiv jihatdan himoyasiz guruhlar ongiga ta'sir qilib, ichki barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Uchinchidan, axborot urushi bir vaqtning o'zida turli sohalarda - siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy konturlarda olib borilgani sababli unga qarshi kurash kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Olingan natijalar asosida qayd qayd qilish mumkinki samarali axborot xavfsizligi modeli quyidagi asosiy yo'nalishlarga tayanishi lozimligini ko'rsatilmoqda:

- aholining media savodxonligini oshirish;
- dezinformatsiyani aniqlash va unga tezkor javob qaytarish mexanizmlarini rivojlantirish;
- kiberxavfsizlikning institutsional bazasini mustahkamlash; davlat, OAV va fuqarolik jamiyati o'rtasida ko'p sektorli hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- ideologik barqarorlik va ijtimoiy birlashuvni qo'llab-quvvatlash; rasmiy axborot siyosatini shaffof va tezkor qilish.

Shu bilan birga, faqat mudofaa choralariga tayanish yetarli emas. Bugungi globallashuv sharoitida davlatlardan strategik kommunikatsiyaga asoslangan faol axborot siyosatini yuritishni, ya'ni global axborot maydonida o'z manfaatlarini samarali himoya qilish va ilgari surishni talab qiladi. Bunday yondashuvgina milliy xavfsizlikning informatsion o'lchamini barqaror saqlab turishga xizmat qiladi.

<sup>17</sup> Brantly, A. F. (2018). *The decision to attack: Military and intelligence cyber operations*. University of Georgia Press.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Toffler, A., & Toffler, H. (1995). War and anti-war: Survival at the dawn of the 21st century. Little, Brown.
2. Libicki, M. C. (2007). Conquest in cyberspace: National security and information warfare. Cambridge University Press.
3. Zuboff, S. (2019). The age of surveillance capitalism. PublicAffairs.
4. Arquilla, J., & Ronfeldt, D. (1997). In Athena's camp: Preparing for conflict in the information age. RAND Corporation.
5. Waltzman, R. (2017). The weaponization of information: The need for cognitive security. RAND Testimony Series, 1–13.
6. Carr, N. (2010). The shallows: What the Internet is doing to our brains. W. W. Norton.
7. Paul, C., & Matthews, M. (2016). The Russian “firehose of falsehood” propaganda model. RAND Corporation.
8. Hoffman, F. (2009). Hybrid warfare and challenges. Joint Force Quarterly, 52, 34–39.
9. Kahneman, D. (2011). Thinking, fast and slow. Farrar, Straus and Giroux.
10. O’Shaughnessy, N. J. (2013). Political marketing and propaganda: The rise of psychological warfare. Palgrave Macmillan.
11. Pariser, E. (2011). The filter bubble: What the Internet is hiding from you. Penguin Press.
12. Rid, T., & McBurney, P. (2012). Cyber-weapons. The RUSI Journal, 157(1), 6–13.
13. Brantly, A. F. (2018). The decision to attack: Military and intelligence cyber operations. University of Georgia Press.